

**“TASDIQLAYMAN”
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI**

Rektor

U. Azizov

**ILMIY-INNOVASION ISHLANMALARNI
TIJORATLASHTIRISH BO‘LIMI TOMONIDAN
2021 - YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR BO‘YICHA**

HISOBOT

Toshkent-2021

Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha HISOBOT

1. Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘lim qoshidagi Forsayt” inkubatsiya va akseleratsiya markazida sog‘lom startap ekosistemasini yaratish ta‘lim va ishlab chiqarishda mavjud muammolarga innovatsion yechim topishga ko‘maklashish, istedodlarni kash etish bo‘yicha bir qator tadbirlar tashkil etildi:

1.1. 2021 yil 10 fevralda Yosh startaperlarni loyihalari, ularning faoliyati hamda mavjud g‘oyalarni tijoratlashtirishga mo‘ljallangan startaplarga aylantirish borasida seminar-trening o‘tkazildi. Seminarda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor G. Bakiyeva, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘ G.Ergasheva, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i F.Abdullayeva, “Forsayt” inkubatsiya va akseleratsiya markazi rahbari Sh.Temirova, Innovatsion va axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha muhandis M. Bo‘tayev, ingliz tili 1 fakulteti, ingliz tili 2 fakulteti, filologiya fakulteti, tarjimonlik fakulteti, dekan muovnlari, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalar qatnashdilar.

1.2. 2021 yil 17 martda Universitetning 2-ingliz tili binosi 2- qavat majlislar zalida Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi huzurida “Forsayt” inkubatsiya va akseleratsiya markazi hamda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT Park) bilan hamkorlikda Universitet 1-ingliz tili, 2-ingliz tili, Filologiya, Tarjimonlik fakulteti dekan muovnlari va iqtidorli talabalariga o‘tkazilgan seminar bo‘lib o‘tdi. Seminarda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT Park) mutaxassisleri, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori U.Azizov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Bakiyeva, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor H.Xakimov, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i F.Abdullayeva, “Forsayt” inkubatsiya va akseleratsiya markazi direktori Sh.Temirova, 1-ingliz tili, 2-ingliz tili, Filologiya, Tarjimonlik fakulteti dekan muovnlari va iqtidorli talabalar qatnashdilar.

1.3. O‘zDJTU markaziy binosida 2021-yilning 31-mart kuni soat 10:00 da Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT PARK) bilan

hamkorlikda Forsayt inkubatsiya va akseleratsiya markazi ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Markazning ochilish marosimida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent shahar hokimligi, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki vakillari, faxriy mehmonlar, universitet ma'muriyat va faol iqtidorli qiziquvchi yoshlar ishtirok etishdi.

1.4. 2021 yil 2 aprelda Universitetning asosiy binosi "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazi xonasida Universitetning AGU AKTga yo'naltirilgan fakultetining 1 kurs talabalari yoshlariga ilg'or startaplar yaratish to'g'risida seminar tashkil etildi. Seminarda "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazi rahbari Sh.Temirova so'zga chiqib, talabalarga Startap haqida umumiy ma'lumot berib o'tdi. Tadbirda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G. Bakiyeva, Ilmiy-innovatsion ishlamalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i F.Abdullayeva, "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazi rahbari Sh.Temirova, Innovatsion va axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha muhandis M. Bo'tayev va bo'lim hodimlari va AGU AKTga yo'naltirilgan fakultetining 1 kurs talabalari qatnashdilar.

1.5. 2021 yil 24 sentabrda Universitetning asosiy binosi "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazida "Startap loyihalarni yaratish: muammo va yechim" nomli seminar-trening bo'lib o'tdi. Seminarda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G. Bakiyeva, Ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i G. Ergasheva, Ilmiy-innovatsion ishlamanlarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i F.Abdullayeva, Innovatsion va axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha muhandis M. Bo'tayev, IT Park raqamli transformatsiya bo'limi menejeri S. Parmanqulov, Ingliz tili-1 fakulteti, Ingliz tili-2 fakulteti, Filologiya ingliz tili fakulteti, Roman-german filologiyasi fakulteti, Rus filologiyasi fakulteti, Tarjimonlik fakulteti, Sharq filologiyasi fakulteti dekanlari va dekan muovnlari, va barcha fakultet talabalari qatnashdilar.

2. Markazda 2021 yil 8 oktabr kuni O'zbekiston jahon tillari universiteti Ilmiy innovatsion ishlamalarni tijoratlashtirish bo'limi tashkil etgan «Innovatsiya 2021: dolzarb muammolar va zamonaviy yechim» Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda Respublika miqyosidagi «Innovatsiya 2021:dolzarb

muammolar va zamonaviy yechim» ilmiy-amaliy anjumanini ochib berish uchun universiteti rektori U.Azizov so'zga chiqib mamlakatimizda qisqa muddatda innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini aytib o'tdi. Anjumanda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori U. Azizov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Bakiyeva, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Inson kapitalini rivojlantirish boshqarmasi o'rinbosari F.Qodirova, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi direktori S.Obidov, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT PARK) direktor o'rinbosari A.Kuchkarov, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti huquq, texnologiya va talim fakultet dekan muovini X.Urazbayev, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig' G.Ergasheva, Ilmiy-innovatsion ishlarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i F.Abdullayeva Tarjima nazariyasi fakulteti dekani muovini A.Raxmonov, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli faol talabalar qatnashdilar. Anjumanda Innovatsion g'oya va takliflarning zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati hamda Fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida mavjud muammolarni nazariy, ilmiy, amaliy tahlil etish, Innovatsion g'oya va takliflarning zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati, fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi muammolar: nazariy, ilmiy, amaliy va ularning innovatsion yechimlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarishda raqamli va axborot texnologiyalarning o'rni, gumanitar fanlarda tadqiqot shakllari: individual ilmiy, texnikaviy, pedagogik hamda hamkorlikdagi tadqiqotlar, xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion zamonaviy metodlari, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqotlar: fundamental, amaliy, innovatsion va boshqa masalalari muhokama qilindi. Anjumanda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori Azizov Ulug'bek Botirovich, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Inson kapitalini rivojlantirish boshqarmasi o'rinbosari Qodirova Fazilat Shukurovna, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti huquq, texnologiya va talim fakultet dekan muovini Urazbayev Xikmatullo Ismatullayevich, Tarjima nazariyasi fakulteti

dekani muovini Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori Raxmonov Azizxon Bositxonovich, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori O'zDJTU doktoranti Begibayeva Nilufar Jurahanovna, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori O'zDJTU doktoranti Muradkasimova Kamola Shuxratovna, WEBCLASS ONLINE SCHOOL startap loyixasi muallifi Xudoyberdiyev Sardor hamda Ilmiy-innovatsion ishlamlarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Abdullayeva Feruza Suyunovnalardan maruzalar bilan ishtirok etdi.

3. O'zbekiston universitetlari qoshidagi inkubatsiya markazlari, IT akademiyasi va Dubai Future Foundation bilan birgalikda Respublika bo'ylab "Students Cup" ko'rik tanlovi bo'yicha IT Park bilan hamkorlikda 2021 yil 3 noyabrda Universitetning asosiy binosi "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazida IT Park, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, tashkilatirilgan seminar-trening bo'lib o'tdi. Tadbirni O'zDJTU doktoranti Sh.Temirova kirish so'zi bilan ochib berdi: "Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar va seminar ishtirokchilari! Bugungi seminar mavzusi "Students Cup" ko'rik tanlovi bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, bizga IT Park xodimi M.Musurmankulova loyiha bo'yicha batafsil ma'lumotlar berib o'tadi" deb so'z navbatini IT Park xodimiga berdi. Shundan so'ng so'zga IT Park xodimi M.Musurmankulova "Students Cup" ko'rik tanlovida ishtirok etish shartlarini va taqdimnomani qanday mezonlar asosida tayyorlash kerak ekanligini o'z taqdimnomasida ko'rsatib tushuntirib o'tdi. Media va kommunikatsiya fakulteti 2-bosqich talabasi M.Orziqulov "Evrika" mavzusidagi taqdimotini ishtirokchilarga namoyish qildi va IT Park xodimi tomonidan taqdimotdagi kamchilik va yutuqlar aytib o'tildi. Seminar-trening savol-javob shaklida bo'lib talabalar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Seminar Media va kommunikatsiya fakulteti dekani A. Karimov, IT Park hodimi M.Musurmankulova, Innovatsion va axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha muhandis M. Bo'tayev, O'zDJTU doktoranti Sh. Temirova, Ilmiy innovatsion ishlamlarni tijoratlashtirish bo'lim xodimlari va Media va kommunikatsiya fakulteti talabalari qatnashdilar.

4. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlash tirish bo'limi qoshida tashkil etilgan "STUDY" o'quv markazida tasdiqlangan dastur asosida tashkil etilgan rus tili, ingliz tili kurslari tashkil etildi. Tashkil etilgan kurslar ingliz va rus tillari bo'yicha o'quv kurslar hisobidan Innovatsion jamg'armaga 2021 yil hisobiga jami 16 321 775 so'm mablag' tushirildi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro'yhatiga kirgan "Filologiya masalalari" jurnaliga talabgorlar tomonidan obuna bo'lish va maqola chop uchun to'lovlar amalga oshirildi. Natijada Innovatsion jamg'armaga 2021 yil hisobiga 4 900 000 so'm tushirildi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi Rahbarining 2021 yil 29 iyundagi 02-PA 1-10861-sonli topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 16 iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 34-sonli bayyoni 2-bandida har bir mutaxassislik kafedralari huzurida ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etib, ularning o'ziga daromad topishi uchun barcha sharoitlar yaratish topshirig'i belgilangan. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 23 iyuldagi № 314-sonli buyrug'i hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2021 yil 27 iyuldagi № 215 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 16 iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 34-sonli bayyoni ayrim bandlarini ijrosini ta'minlash to'g'risidagi buyrug'idagi belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida universitetning har bir mutaxassislik kafedralari huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan.

6.1. Har bir mutaxassislik kafedralari qoshida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazalarning ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlari, faoliyati, markaz Nizomi, markazining rivojlanishi tarmoq ishlarining muammolarini ilmiy yechishga yo'naltirilgan 3 yillik ilmiy-ishlari dasturlari qayta o'rganildi va takomillashtirildi. Ilmiy tadqiqot markazlari faoliyatidan daromad topish uchun barcha sharoitlar yaratish maqsadida kerakli o'quv, laboratoriya va moddiy-texnik vositalar bo'yicha takliflar ro'yhatlari qayta o'rganildi. Kafedra tomonida Ilmiy tadqiqot markazlari faoliyatidan daromad topish rejasi ishlab chiqilgan.

2021 yil 14-18 dekabr kunlari 36 ta mutaxassislik kafedralari huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlari ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlari, faoliyati, markaz Nizomi, markazining rivojlanishi tarmoq ishlarining muammolarini ilmiy yechishga yo'naltirilgan 3 yillik ilmiy-ishlari dasturlari, ilmiy tadqiqot markazlari faoliyatidan daromad topish uchun barcha sharoitlar yaratish maqsadida kerakli o'quv, laboratoriya va moddiy-texnik vositalar bo'yicha takliflar ro'yhatlari, markaz faoliyatidan daromad topish rejalari o'rganish bo'yicha umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni hamda markazi faoliyatidan daromad topish rejasi o'rganildi. Qayta o'rganish natijalari bo'yicha umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlar universitet Kengashiga taqdim etildi. Ilmiy tadqiqot markazi faoliyatidan daromad topish rejasi Universitet Kengashida tasdiqlandi. Istiqboldagi rejalar kelishib olindi.

**Ilmiy innovatsion ishlanmalarni
tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i**



F. Abdullayeva